

**PEDAGOGIK HAMKORLIKKA ASOSLANGAN TA'LIMNI TASHKIL ETISH  
PRINSIPLARI**

**Yabarbergenova Shadigul**

**Tilovmuratova Muborak**

**Jumabaeva Elvira**

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahar*

*1-sonli kasb-hunar maktabi o'qituvchilari*

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda oliy va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida hozirgi innovatsion ta'lim sharoitida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining pedagogik hamkorlikni rivojlantirishning didaktik tizimi to'g'risida fikr yuritiilgan bo'lib, yuqori darajadagi bilim va kasbiy ko'nikmalarni egallashlari o'quv faoliyati va ishlab chiqarish jarayonini tahlil qila olish, yangi nostandard g'oyalarni ilgari surish, zamonaviy talablarga javob beradigan metod, vositalar, kasbiy va ilmiy axborotlarni o'zlashtirish zarurligi masalalari talqin qilingan.

**Kalit so`zlari:** ta'lim tizimi, oliy ta'lim, ijodkorlik, faoliyat, zaruriyat, bilim, iqtidor, qobiliyat, malaka, rivojlantirish.

**KIRISH**

Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, faol va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Hozirgi davrda ishlab chiqarishda texnika va texnologiyalarning modernizatsiyalashayotganligi, ilm va fanning jadal taraqqiyoti mutaxassis kadrlardan o'z bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to'ldirib va kengaytirib borishni talab etadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Turli mualliflar tomonidan e'lon qilingan pedagogik hamkorlikni rivojlantirish to'g'risidagi ilmiy maqolalarda ijodiy izlanish eng asosiy sifatlardan biri ekanligi qayd etiladi.<sup>1</sup>

Taniqli olim N.A.Muslimovning ta'kidlashicha, ijodkorlikni tadqiq qilish mustaqil ta'lim olish va ijodiy individuallikni rivojlantirish maqsadida ijodkorlik jarayonlarini tashkil qilish va boshqarishning ijodiy jarayonni innovatsion amaliyotda modellashtirish (aynan yaratuvchanlik faoliyatda shaxsning kreativ potensiali rivoj topadi) bilan bog'liq maqbul shakllarini aniqlash imkonini berdi. Bu o'rinda yuzaga keladigan murakkablik ijodiy hamkorlik faoliyatini yaxshiroq tashkil qilish hamda boshqarish bilan belgilanadi, zero, bunda ongli ijodiy individuallikning to'g'ridan-to'g'ri anglanmaydigan jarayonlari ham shakllanadi.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Mamatqulov A.N. Kasbiy ta'limda talabalar ijodkorligini rivojlantirish. "Zamonaviy ta'lim" ilmiyamaliy ommabop jurnal – Toshkent, 2019. №12(85). 11-17 betlar.

<sup>2</sup> Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy – metodik asoslari.: Dis. ... ped. fan. dokt. – T.: 2007. – 275 b.

Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilari ijodkorligini rivojlantirishning mazmuni, didaktik xususiyatlari, pedagogik shart-sharoitlarini asoslash, ularning samaradorligi va mohiyatini olib berishdan iborat.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik faoliyat amaliyoti ko'rsatishicha, o'qitishning mohiyati talabalarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, ilgarigidek o'quv fanlari bo'yicha asosan bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Oqibatda talabalarda haddan ziyod axborotning behuda jamg'arilayotganligi, ta'limning befoydaligi va uning haqiqatdan uzoqligi kabi fikrlar paydo bo'ladi. Talaba real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgaridan to'planib kelgan axborotlarnigina o'zlashtirish maqsadi qo'yilgandek bo'lib qoladi. Kasb ta'limiga oid zamonaviy adabiyotlarda pedagogik jarayon quyidagi o'zaro bog'liq bo'lgan komponentlar tizimidan iborat deb ta'kidlanadi<sup>3</sup>:

- 1) faoliyatning maqsadlari;
- 2) ta'lim beruvchi;
- 3) ta'lim oluvchi;
- 4) faoliyat mazmuni;
- 5) faoliyat shakllari;
- 6) faoliyat vositalari va usullari;
- 7) faoliyat natijasi.

Ta'lim jarayoni tizimini hosil qiluvchi tushunchalar – ta'limning maqsadi, ta'lim beruvchilarining faoliyati (o'qitish), ta'lim oluvchilarining faoliyati (o'qish) va natija hisoblanadi.

Mashg'ulotning maqsadlari va boshqacha qilib aytganda, tizimning har bir tarmog'i, ta'lim tizimining har bir elementi nisbatan xususiy maqsadni amalgalash, umumiy maqsadni amalgalash oshirish uchun xizmat qiladi. Ta'lim tizimining yagona maqsadi uning tarmoqlari va elementlari maqsadlari tuzilmasining yoyilmasi ko'rinishida aks ettiriladi va uning eng yuqori cho'qqisi asosiy pirovard maqsadni ifodalaydi. An'anaviy ta'lim tizimi sharoitlarida maqsadning ta'lim mazmuniga yo'naltirilganligi maqsad va mazmunning o'zaro mos bo'lishiga olib keladi:

- maqsad – fanning asoslari o'zlashtirish;
- mazmun – bilim va ko'nikmalarda ifodalangan ana shu asoslarning o'zi.

Zamonaviy talablarga javob beradigan ta'lim tizimida esa, maqsad – insonning shaxsiy imkoniyatlarini o'stirish, ilgaridan ma'lum bo'lmagan predmetlarga oid va ijtimoiy vaziyatlarda o'zining kompetentliligini namoyon qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat, bunda mazmun – shu maqsadga erishishni ta'minlovchidir.

Ijodkorlikni rivojlantirish uchun bugungi kunda kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda bo'lajak mutaxassislardan quyidagi sifatlar talab qilinadi:

<sup>3</sup> N.A.Muslimov, Z.T.Raximov, A.A.Xo'jaev, H.Sh.Qodirov. Ta'lim texnologiyalari. Darslik, – T.: «Voris - nashriyot», 2019. 337-bet.

- ular yuqori darajadagi bilim va kasbiy ko'nikmalar asosida;
- ular pedagogik faoliyatni va ishlab chiqarish jarayonini tahlil qila oladigan;
- yangi nostandard g'oyalarni ilgari sura oladigan;
- ratsional, zamonaviy talablarga javob beradigan metod va vositalarni;
- kasbiy va ilmiy axborotlarni o'zlashtirishning yangi usullarini amaliyotda qo'llay oladigan - bo'lishi lozim.

#### XULOSA

1. Kasb ta'lilda pedagogik hamkorlik dinamik hodisa, murakkab ochiq tizim, shaxs hayotiy dasturi sifatida namoyon bo'ladi.
2. Zamonaviy ijodkor o'qituvchi pedagogik faoliyatning reproduktiv usuli va ijodkorlikdan birini tanlashda nafaqat o'zligini, hayotiy maqsadlarini ro'yobga chiqaradi, u o'zini sifat jihatidan o'zgartiradi, psixologik to'siqlarni yengadi, kasbiy ahamiyatli sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini qidiradi, o'z pedagogik konsepsiyasini ishlab chiqadi.
3. Umuman olganda, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisining o'quv faoliyati uchun birinchidan innovatsion yo'naltirilgan, ikkinchidan, pedagogik faoliyati jarayonida individuallik sifatida o'ziga yo'naltirilganlikka xos bo'ladi.
4. Shunday qilib, bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchisi kasbiy-pedagogik va pedagogik hamkorlikning didaktik tizimi kompetentligini rivojlantirish faoliyatini egallash uchun zarur va yetarli shartlar kerak bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Mamatqulov A.N. Kasbiy ta'lilda talabalar ijodkorligini rivojlantirish. "Zamonaviy ta'lim" ilmiyamaliy ommabop journal – Toshkent, 2019. №12(85). 11-17 betlar.
2. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy – metodik asoslari.: Dis. ... ped. fan. dokt. – T.: 2007. – 275 b.
3. N.A.Muslimov, Z.T.Raximov, A.A.Xo'jaev, H.Sh.Qodirov. Ta'lim texnologiyalari. Darslik, – T.: «Voris - nashriyot», 2019. 337-bet.
4. Raximov Z.T. - Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish metodikasi, Monografiya. – Toshkent: "Voris" nashriyoti. – 2019. 116 b.
5. Mengliyev B. PEDAGOGICAL COMPETENCE OF A MODERN PHYSICAL EDUCATION TEACHER //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – C. 554-556.